XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 31-oktabr VII-14-252-1-0-K/25 Andijon viloyati

Andijon viloyatida kelgusi yillar davrida ulgurji va aholi isteʼmolchilarga issiqlik va issiq suv taʼminoti yuzasidan kommunal xizmatlar tarifini shakllantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentyabrdagi “Yoqilgʻi-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi № 475-sonli qarorlariga asosan kelgusi yillar uchun ulgurji va aholi isteʼmolchilariga issiqlik taʼminoti yuzasidan kommunal xizmatlar boʻyicha tarifni shakllantirishda rentabellik darajasi, energoresurslarni narxi ortganligi sababli aholiga va boshqa ulgurji isteʼmolchilarga issiqlik energiyasi yetkazib berish xizmatlari uchun tarif narxlarni oʻzgartirish zaruriyati yuzaga kelgan.

Shunga koʻra Andijon viloyat “Issiqlik taʼminoti” masʼuliyati cheklangan jamiyati tomonidan 2025-yil 30-yanvardagi № 01-17 sonli xati va tegishli maʼlumot jadvallar boʻyicha ishlab chiqariladigan issiqlik energiyasi va issiq suv yetkazib berish xizmatlari uchun taklif etilayotgan yangi narxlar Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etilgan hamda Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi tomonidan oʻrganib chiqilib 2025-yil 6-avgustdagi № 03/17-16-551 sonli xulosa olingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida” gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentyabrdagi “Yoqilgʻi-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi № 475 sonli qarorlari, “Andijon viloyati Issiqlik taʼminoti” MCHJning 2025-yil 25-avgustdagi 01/01-76/1-sonli xati, viloyat Iqtisodiyot va moliya Bosh boshqarmasining 2025-yil 6-avgustdagi № 03/17-16-551 sonli xulosasi maʼlumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda kelgusi yillar uchun Andijon viloyat “Issiqlik ta′minoti” mas′uliyati cheklangan jamiyati tomonidan issiqlik energiyasi va issiq suv yetkazib berish uchun yangi narxlar (tariflar) 1-ilovaga muvofiq ma′qullansin.

3. Xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024-yil 15-iyundagi VI-57-2-1-0-K/24 sonli “Andijon viloyatida kelgusi yillar davrida ulgurji va aholi iste′molchilarga issiqlik ta′minoti yuzasidan kommunal xizmatlar tarifini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori va qarorning 1 ilovasidagi ulgurji va aholi iste′molchilar uchun tasdiqlagan narx qismi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Viloyat xokimligi matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi R.Eshonov mazkur qarorni matbuotda e′lon qilsin va viloyat xokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirsin.

5. Ushbu qaror viloyat hokimi tomonidan tasdiqlansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Omanov), ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari D.Karimov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari (U.Jo‘rayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi AXUNOV UKTAMJON XXX

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2025-yil 31-oktabrdagi
VII-14-252-1-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyat “Issiqlik ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan issiqlik energiyasi va issiq suv yetkazib berish uchun amaldagi va yangi narxlar (tariflar)

Xizmatlar turi	**O‘lchov birligi**	**Amaldagi narx (tarif) QQSsiz so‘m**	**Yangi narx (tarif) QQSsiz so‘m**
Issiqlik energiyasi yetkazib berish xizmatlari narxi aholi uchun			
Issiqlik energiyasi	1 Gkal	112 015	112 015
Issiqlik energiyasi	Kuniga 1 m^2 isitiladigan maydon uchun	70,94	70,94
Issiqlik energiyasi yetkazib berish xizmatlari narxi byudjet va ulgurji tashkilotlar uchun			
Issiqlik energiyasi	1 Gkal	402 932	503 665
Issiq suv yetkazib berish xizmatlari narxi aholi, byudjet va ulgurji tashkilotlar uchun			
Issiq suv	1 m^3 byudjet va ulgurji tashkilotlarga	_	30 119
Issiq suv	1 m3 aholiga hisoblash uskunasi orqali	_	6 698.5
Issiq suv	Aholiga hisoblash uskunasisiz 1 kishi hisobiga 1 oyga	_	21 394.87